

AHMAD YUGNAKIY "HIBAT-UL HAQOYIQ" ASARIDA INSONIY FAZILATLAR TALQINI

Anvarjonova Rayhona

O'quv maskani: Farg'ona Davlat Universiteti 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20023435>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi XII asr oxiri va XIII asr boshlarida yashab ijod etgan buyuk mutaffakir Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul haqoyiq" ("Haqiqatlar tuhfasini") asarining mazmun-mohiyati, undagi axloqiy-talimiy qarashlar hamda ilm va odobning inson kamolotidagi o'rnini tahlil qilinadi.

Abstract: This thesis analyzes the essence of the work "Hibat-ul Haqoyiq" ("The Gift of Truths") by the great thinker Ahmad Yugnaki, who lived and worked in the 12th and early 13th centuries. It examines the ethical and educational views presented in the work, as well as the role of knowledge and manners in human perfection.

Аннотация: В данной тезисной работе анализируется суть и содержание произведения «Хибатуль-хакаик» («Подарок истин») великого мыслителя Ахмада Югнаки, жившего и творившего в XII — начале XIII веков. Рассматриваются этико-дидактические взгляды, а также роль знаний и приличий в совершенствовании человека.

Kalit so'zlar: Didaktika, ilm, til odobi, axloq, inson kamoloti.

Keywords: Didactics, knowledge, linguistic etiquette, ethics, human perfection.

Ключевые слова: Дидактика, знание, культура речи, нравственность, совершенствование человека.

Insonlarni yaxshilikka yetaklash, ularni oqilona fikrlashga undash, odob-axloq qoidalariga rioya etish kabi masalalar har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. Har qanday inson o'zining qo'lidan keladigan ish orqali bu ishni amalga oshirmoqda. Misol uchun: adiblarning shu kungacha yozgan har qanday asarlari bunga misol bo'ladi. Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Mahmud Koshg'ariylar yozgan asarlar, hikmatli so'zlar ham, shular jumlasidandir. Turkiy adabiyotlar ichida Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul haqoyiq" asari ham didaktik asarlarning orasidan ajralmaydigan yuksak durdona asardir. Biz bu asrda har qanday axloqiy masalalarni she'riy tarzda uchratamiz.

Kitob koshg'ariy tilda she'riy yo'l bilab yozilgan. "Qutadg'u bilig"dan 1-2 asr keyin yaratilgan bu asar o'zbek mumtoz adabiyotining noyob durdonasi hisoblanadi. "Hibat-ul haqoyiq" asari 14 bob, 512 misradan iborat. Dostonning 1-bobi Allohga hamd, 2-bobi Muhammad (s.a.v) ga na'd 3-bobi Dod Sipohsolorbek madhiga bag'ishlangan. 4-bobida kitobning yozilish sabablari beyon qilingan. Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul haqoyiq" asari boshlanishidan to yakuniga qadar pand-nasihati tarzida yozilgan asardir. Bizda adib Ahmad Yugnakiy haqida juda ko'p ma'lumot yo'q. asarda ham faqat bir yerida o'z ismini kiritgan.

Adib Ahmad otim, adab-pand so'zum,

So'zum munda qolur, borur bu o'zim.[1]

Bu asarda axloqiy qoidalar ilgari surilgan, har qanday insonni hurmat qilish, sendan ko'ra ulug' bo'lgan insonlarni hurmat qil degan ma'nodagi bayt ham keltirilgan.

Ulug'lar ne bersa, yemasman dema,

Ilik sun, og'iz ur, yemasang-yema. [2]

Bu baytni mazmuni shuki, senga ulug` insonlar, ya'ni yoshi katta insonlar dasturxonidan narsa bersa uni ol, uning qo`lini qaytarma. Uni olib hech bo`lmaganda og`zinga bir tekizib qo`y degab pand-nasihah ma`nosida keladi.

Biz bu asarni o`qiganimizda undagi har bir baytning mazmunini tushunishiniz va anglashimiz kerak. Ilm haqida, odob haqida baytlar kitobxon ongiga singib, tushunarli tarzda yetib boradi.

So`ngakka ilikdur, eranga-bilik,

Biliksiz eran-ul iliksiz so`ngak.

Biz ovqat tanavvul qilganimizda suyakning iliksiz ekanligini ko`rsak uni biz qo`limizga olmaymiz, ya'ni iliksiz suyak hech kimga yoqmaydi. Shoir esa bilimsiz kishini, huddi, iliksiz suyakday degan ma`noni bermoqda. Negaki, bilimsiz inson ham, iliksiz suyak kabi foydasiz va keraksizdir. Bu baytlar insonni ilmi bo`lish va odobli bo`lishga undaydi.

Bu asar insoniyat hayotida juda katta o`zgarishlarga sabab bo`lgan desak hech yangilishmagan bo`lamiz. Bu asarda har qanday vaziyatda oqilona fikr yuritishga undaydigan, insonning fikrlash doirasini o`zgartiradigan darajadagi asardir.

Atodin xato kelsa, ko`rman xato,

Savob bil xato toki qilsa ato.

Atoning xatosini bilgil savob,

Seni yuz balodin qutqarg`ay Xudo.

Bu to`rtlikda, har qanday vaziyatda otani ulug`lash, uning xatolarini kechirish, uni hurmat qilish to`g`risida gap ketmoqda. Shunda senga Alloh tomonidan balodan saqlanish va savob yozilishi to`g`risida aytilgan. Bu to`rtlikda adib ham islomiy qadriyatlar, ham umuminsoniy axloqni juda chiroyli tarzda yoritib bergan. Bunday ishlar inson kamolotiga ham ta`sir qilinishiga turtgi bermoqda. Ya'ni "Seni yuz balodin qaytargay Xudo" bu misrada har qanday holatda Alloh tomonidan qo`llab quvvatlansan degan ma`noda so`z yuritilgan. [3]

Insoniy fazilatlar ulug`langan bu asar turkiy adabiyotning eng cho`qqisi hisoblanadi.

Tiling bekla, tishing sinmasun,

So`zung qisqa qil, umrung uzun bo`lsun. [1]

Bu baytda tilni tiyish, faqat mazmunli, kerakli bo`lgan so`zlarni so`zlash muhimligi to`g`risida so`z yuritiladi. Ba`zida insonning bilmay gapirgan birgina so`zi uning boshiga kulfat yog`dirishi mumkin. Shu sabali, adib faqat kerakli so`zni so`zla, o`zingga jabr qilma, degna ma`noda bu baytni keltirgan.

Xulosa sifatida shuni keltirish mumkunki, Ahmad Yugnakiy bu asari orqali insonlarni har qanday vaqtda o`zini tuta bilish to`g`risida fikr yuritgan. Bu asar turkiy adabiyot tarixidan ajralmas bo`lak sifatida qadirlanadi. "Hibat-ul haqoyiq" asari o`zining falsafiyliги bilan ham ajralib turadi. Ahmad yugnakiyning merosini o`rgganish va uni ta`lim jarayoniga keng tadbiiq etish yoshlarning ma`naviy olamini boyitishga, ularda umuminsoniy qadriyatlarga nisbata hurmat uyg`otishga yordam beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ahmad Yugnakiy, "Hibat- ul haqoyiq" – Toshkent, 1971. 93-bet.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. 17-jild. Ahmad Yugnakiy. "Hibat-ul haqoyiq" – Toshkent, 1971. 426-427-betlar.

3. Alisher Navoiy. Mukammal asrlar to`plami. 14-jild (Mahbub ul-qulub. Munshoat. Vaqfiya). – Toshkent, 1998. Ahmad Ygnakiy. “Hibat-ul haqoyiq” – Toshkent, 1971. 184-bet.